



## FARG‘ONA VILOYATI DANG‘ARA TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 4 - oktabr

350-11-155-Q/22

Dang‘ara tuman hokimligi

### **Dangara tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2011-yil 4-apreldagi 101-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddasiga asosan Quvasoy shahar hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

### **QAROR QILAMAN:**

1. **Dangara tumanida** dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosarlari R.Akramov, T.Salimovlar numandagi barcha MFY raislari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

sanitariya qoidalari va meyorlariga qat‘iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta‘minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi M.Xolmirzayev hamda qabristonlarning ma‘muriyati:

xizmatlar uchun qat'iy belgilangan tariflar bo'yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko'rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini;

- qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo'lgan inshootlarni o'rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimligi Axborot xizmati (U.Usmonov), "Dangara" ro'znomasi muxarriri (O'.Akbarova)lar ushbu qarorni tuman hokimligi tasarrufidagi "Dangara" gazetasida rasman e'lon qilinsin va tuman hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari R.Akramov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**Sh.Tojixakimov**

Dang'ara tuman hokimining  
2022 yil 4 oktabrdagi  
350-11-155-Q/22-son qaroriga  
1-ilova

**Dangara tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko'rsatish  
bo'yicha tariflar miqdori**

<b>T\r</b>	<b>Xizmat turi</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>Tuman (shahar)lar</b>
1	Go'r qazish	1 o'ringa	148500
2	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o'ringa	<b>bepul</b>
3	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	<b>bepul</b>
4	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o'rin/kung	<b>bepul</b>